

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
“O‘ZBEKISTON MILLIY  
ELEKTR TARMOQLARI”  
AKSIYADORLIK JAMIYATI

100084, Toshkent sh., Yunusobod t., Osiyo k., 42.  
Tel: (998-71) 208-56-01  
e-mail: info@uzbekistonmet.uz  
Veb sahifa: www.uzbekistonmet.uz



THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
JOIN STOCK COMPANY  
“NATIONAL ELECTRIC  
GRID OF UZBEKISTAN”

42, Osiyo str., Yunusobod dist., 100084, Tashkent  
Ph: (998-71) 208-56-01  
e-mail: info@uzbekistonmet.uz  
Web site: www.uzbekistonmet.uz

2026-yil 9-iyun  
01-05-13/4401-son

**“Navoiy MET” filiali  
Nurota hududi ustasi  
A. Ro‘ziboyevga**

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan, Sizning, “Navoiy MET” filialida o‘tkazilayotgan xizmat tekshiruvini davomida xodimlarni tayyorlash va jamlash guruhi yetakchi muhandisi R.Toshevani ishdan chetlashtirilishidan noroziligingiz masalasida Jamiyat boshqaruvi raisi nomiga yo‘llagan jamoaviy murojaatingiz Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni qayd qilish kitobida 26-may kuni JAM-86 raqami bilan ro‘yxatga olinib belgilangan tartibda o‘rganib chiqildi.

“O‘zbekiston MET” AJning 2026-yil 1-maydagi 113-son buyrug‘iga asosan “Navoiy MET” filiali xodimi B.Hamidovning murojaati yuzasidan filial xodimlarining xatti-harakatlarini o‘rganish maqsadida xizmat tekshiruvini o‘tkazilishi belgilangan.

Xizmat tekshiruvini davomida aniqlangan holatlarni inobatga olib, Jamiyatning 2026-yil 15-maydagi 123-son buyrug‘iga asosan filial direktori A.Ro‘ziyev hamda xodimlarni tayyorlash va jamlash guruhi yetakchi muhandisi R.Tosheva O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 309-moddasida belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o‘tkazish muddati davomida ishdan chetlashtirilganlar.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi mehnat qonunchiligiga ko‘ra ish beruvchi xodimni xizmat tekshiruvini o‘tkazish vaqtida ishdan chetlashtirishga haqli ekanligi hamda ishdan chetlashtirish uchun tegishli asoslar mavjudligini inobatga olib, R.Toshevaning xizmat tekshiruvini o‘tkazish muddati davomida o‘rtacha ish haqi saqlangan holda ishdan chetlashtirilishi qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshirilganligi ma‘lum qilinadi.

Shuningdek, ushbu javobdan norozi bo‘lgan taqdiringizda qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega ekanligingiz tushuntiriladi.

**Boshqaruv raisining  
o‘rinbosari**



**A. Yuldashev**

Ijrochi: YB  
Tel: (71) 208-56-51